

NIG'MATOVA Nargiza Uyg'un qizi
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Magistratura "Islomshunoslik" mutaxassisligi 2-kurs
talabasi
E-mail: nematova020400@gmail.com
Ilmiy rahbar: To'raev No'monjon

MAVLAVIY HINDISTONIY TAFSIRINING YOZILISH TARIXI VA USLUBI

HISTORY OF WRITING AND STYLE OF THE MAVLAVI HINDUSTANI'S TAFSIR

ИСТОРИЯ НАПИСАНИЯ И СТИЛЬ ТАФСИРА МАВЛАВИ ХИНДУСТАНИ

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilida nashr etilgan bir qator tarjima-tafsirlar hamda mashhur mufasssir Muhammadjon Hindistoniyning "Bayonul Furqon fi tarjamatil Qur'on" asari haqida so'z yuritildi va qiyosiy tahlil etildi. Hindistoniy asarining o'zbek tafsirshunosligidagi ahamiyati, yozilish tarixi, tuzilishi bayon qilinib, olimning tafsir ilmida tutgan o'ziga xos uslubi ochib berildi va misollar yordamida dalillandi.

Kalit so'zlar: Qur'on, tafsir, mufasssir, tarjima, o'zbek tafsirshunosligi, Muhammadjon Hindustani, Bayonul Furqon fi tarjamatil Qur'on.

Abstract: This article examines and compares a number of translations and interpretations published in the Uzbek language, as well as the work of the famous mufasssir Muhammadjan Hindustani "Bayanul Furqan fi tarjamatil Qur'an". The importance, history and structure of Hindustani mufasssir in Uzbek tafsir studies are explained, and the scientist's unique style in tafsir studies is identified and proven using examples.

Key words: Quran, tafsir, mufasssir, translation, Uzbek tafsir studies, Muhammadjan Hindustani, Bayanul Furqan fi tarjamatil Quran.

Аннотация: В этой статье был рассмотрен и сравнен анализ ряда переводов-тафсиров, изданных на узбекском языке, а также произведения известного мufасссира Мухаммаджана Хиндустани "Баянул Фуркан фи таржаматил Куръан". Изложены значение труда Хиндустани в узбекском тафсироведении, история его написания, структура, раскрыт и на примерах доказан уникальный стиль ученого в тафсироведении.

Ключевые слова: Коран, тафсир, мufасссир, перевод, узбекское тафсироведение, М. Хиндустани, Баянул Фуркан фи таржаматил Коран.

KIRISH

Qur'oni karim islom dinining asosiy manbasi bo'lib, u arab tilida nozil qilingan. Shu sababli boshqa tilda so'zlashuvchi musulmonlar uchun uni tushunishda qiyinchiliklar mavjud. Ushbu ehtiyojni qondirish maqsadida turli davrlarda musulmon ulamolari tomonidan Qur'oni karim tarjima va tafsir qilingan.

Istiqlol yillarida milliy va diniy qadriyatlarimizni qayta tiklash, ularni yosh avlodga singdirish, shuningdek, ularni milliy va diniy qadriyatlarni tahlil qila olish ruhida tarbiyalash lozim deb qaraldi. Ana shu yo'lda diniy ilmlarni o'rganish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Natijada, Qur'oni karim ilmi, tarjima va tafsiriga oid asarlar chop etila boshlandi. Darhaqiqat, islom dinining asosiy manbai bo'lgan Qur'onga taalluqli ilmiy faoliyat doim o'zining dolzarbligi bilan ahamiyatlidir.

ASOSIY QISM

O'zbekistonda Qur'oni karimni o'zbek tiliga tarjima va tafsir qilish yuzasidan ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Bunday tadqiqotlarning dastlabkilari sifatida Shayx Alouddin Mansur tomonidan amalga oshirilgan Qur'oni karim tarjimasini keltirish mumkin. Ushbu tarjima 1989-1990-yillarda "Sharq yulduzi", "Fan va turmush", "Zvezda vostoka" kabi o'zbek va rus tillaridagi jurnallarda chop etildi. 1992-yili Shayx Alouddin Mansurning mazkur ishi "Qur'oni karim ma'nolarining izohli tarjimasini" nomi bilan Cho'lpon nashriyotida yagona kitob o'laroq chop etildi.

1991-1998-yillar orasida Shayx Muhammad Sodiql Muhammad Yusufning Qur'oni karim alohida juzlarining o'zbek tilidagi tafsirlari chop etildi.

Shayx Abdulaziz Mansur ham ushbu sohada izlanishlar olib borib, 2001-yilda "Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsirini"ni nashr ettirdi.

Sayyid Mahmud Taroziy (Oltinxon To'ra) ning "Qur'oni karim tarjimalari va izohlari" Hoji Ismatulloh Abdulloh tomonidan nashrga tayyorlanib, 2000-yili "Fan" nashriyotida bosib chiqarildi.

2004-yilda professor Mutallib Usmon boshchiligidagi olimlar ishtirokida "Qur'oni karim: tarjima va ilmiy-tarixiy izohlar" kitobining Qur'oni karim 15-30-juzlarini o'z ichiga olgan 1-jildi nashr etildi.

Istiqlol davrida yozilgan Qur'oni karim tafsiri va ma'nolari tarjimalarining kirish va xulosa qismlarida Qur'oni karimning nozil bo'lish jarayoni, tafsir ilmining tarixi, mufasssirlar va ularning asarlari haqida ma'lumotlar ham ilova qilingan.

Alloma Mavlaviy Hindistoniy ham yirik o'zbek mufasssirlaridan hisoblanadi. Uning "Bayonul Furqon fi tarjamatil Qur'on" nomli tafsiri chorak asrdan ziyod ilmiy izlanishlari natijasi o'laroq yaratilgan.

Ushbu kitob o'zbek tilidagi boshqa tafsirlardan tarjima matnining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Asar erkin, og'zaki, ommabop tarjima bo'lib, xalq ichida "Tafsiri Hindistoniy" deb atalgan. Lekin matn tarjimasining xususiyatidan kelib chiqib, olimlar uni izohli tarjima, deb hisoblashadi.

Ushbu tafsir 1985-1989-yillar orasida Sho'rolarning taqiq va tazyiqlariga qaramasdan yozilgani bilan e'tiborga molik. Asar shogirdlarning ustozdan Qur'on oyatlari ma'nosini eshitib, yozib olishi va o'z o'rniga joylashtirishi asnosida vujudga kelgan. Natijada, olti jildli bu nodir manba, qo'lyozma holida xalqimiz orasida tarqalgan va o'qib kelingan. Bu asarning yozilish jarayonidan xabardor bo'lganlarning aytishicha, domlanning og'zaki tafsir qilish jarayonida, qo'lyozmani asosan uch shogird ko'chirib olgan. Ammo tarjima matnining qachon, qayerda yozilganligi, ko'chirgan kotiblarning ismlari qayd etilmagan.

Olim Qur'onni tafsir qilish jarayonida Jaloliddin Mahalliy va Jaloliddin Suyutiyning "Tafsiri Jalolayn", Abdulloh ibn Umar Bayzoviyning "Tafsiri Qozi Bayzoviy", Husayn Voiz Koshifiyning "Tafsiri Husayniy" kabi mashhur tafsirlar va lug'atlardan foydalangan.

"Bayonul Furqon fi tarjamatil Qur'on" kitobi shakli, mazmuni, bayon qilish uslubi jihatidan o'ziga xosdir. Bu kitob Qur'oni karimning arab xatidagi o'zbek tilida amalga oshirilgan Oltinxon To'ra tarjimasidan keyingi tarjimadir.

Olim haqida aytilgan xotiralarning birida bu haqida shunday deyiladi:

"Hoji Muhammajon qori Xudo kitobi deb atalmish Qur'oni karimni, o'zi andijonlik bo'lgan, umrining so'nggi yillarini Saudiya Arabistonida o'tkazgan Oltinxon To'radan so'ng, ikkinchi bo'lib o'zbek tiliga (arab hurufotida) o'g'irganlar. Shu o'rinda, bir narsani ilova qilish kerakki, mashhur alloma Oltinxon To'raning Qur'oni karim qilgan tarjimalari 2400 sahifadan iborat bo'lgan. Uni obdon, sinchiklab o'qib chiqqan hoji Muhammajon Ho'qondiy mazkur tarjima xususan yoshlarning

o'qib-o'rganishlari uchun biroz qiyinchilik qilishini e'tiborga olib, tarjimani ancha ixchamlashtirgan va soddalashtirgan holda 1640 sahifa atrofida tarjima qilganlar. Kitobning umumiy hajmi 6 jild-tomdan iborat"[1:4-5].

Muhammadjon domlanning asari o'zbek tilidagi ilk ommabop tafsirlardan hisoblanadi. Domla shogirdlariga Oltinxon To'raning Qur'on ma'nolari tarjimasini tili biroz murakkab ekanini, sodda, xalqchil bir kitob tayyorlashni niyat qilgani va shu asosda ishga kirishganini aytgan. Shuning uchun ham kitobda mazkur tarjima muhaqqiq olimlar uchun emas, "avomunnos va ham yosh talabalar fahmlarig'a munosib sodda va muxtasar"[2:3] tarzda tayyorlanganini alohida ta'kidlaydi.

Kitobning birinchi jildi ich muqovasida quyidagi muqaddima bitilgan:

"Muhtaram qori kiromlarimizdan kamoli ehtirom bila iltimos qilurmanki, Qur'oni karim ma'nolari daryoi azimdur. Bu daryodan har kim o'z zehniga loyiq suv oladur. O'tgan salafi solihinlarimizni Xudo rahmat qilsun, bizlar uchun tafsirlar yozib qoldirg'on ekanlar. Bizlar ushbu zotlarning tafsirlaridan foydalanub, ushbu amri azim ya'ni Kalomullohni tarjimasiga jur'at qildim. Bu tarjimani avomunnos va ham yosh talabalar fahmlarig'a munosib sodda va muxtasar qildim va muhaqqiq olimlar uchun emasdur. Agar bu tarjimada va yo kotib imlosida xato tofsalar, isloh qilib qo'ysunlar. Va kaminani duoyi xayr qilmoqlarini umid qilurman. Xudovand sizlarga ham ajri azim ato qilsun. Omin, yo Rabbal olamin.

"Bayonul Furqon fi tarjimatil Qur'on". Tarjimat al-hoj, al-hofiz – Muhammajon, sina an sharril insi val jonn. Omin"[1:4-5].

"Bayonul Furqon fi tarjimatil Qur'on" asari sodda va ixcham tuzilib, olimning o'zi ta'kidlaganidek, yosh toliblar va xalq ommasiga mo'ljallangan bo'lsa-da, tafsir matnida eski o'zbek tiliga xos xususiyatlar ko'p qo'llanilgan.

Jumla tuzilishi, gapdagi ega, kesim va ikkinchi darajali bo'laklar o'zbek tili qoida va uslubiga muvofiq qo'llanmagan, og'zaki nutqdagi kabi erkin tarjima qilingan.

Asar qo'lyozmasi har biri besh poradan bo'lgan 6 ta kitobdan iborat. Matnlar arab yozuvining nasx va nasta'liq xatlarida uncha silliq bo'lmagan qizg'ishroq, mustahkam hamda qalin varaqlarga yozilgan va o'shandan nusxa ko'paytirilib, tarqatilgan. Oyatlar nasx xatida, matn esa nasta'liq xatida, Movarounnahrning o'ziga xos yozish uslublariidan birida bitilgan. Lekin ayrim o'rinlarda kotiblarning e'tiborsizligi tufayli matnlar

nasx va nasta'liq xatining aralash ko'rinishida yozilgani ko'zga tashlanadi. Chunki, matnlar yo to'liq nasta'liqda yoki nasxda yozilishi kerak edi.

Ba'zi oyatlar tarkibidagi tushib qolgan so'zlarni e'tibordan chetda qoldirilib, tuzatilmagan o'rinlar ham mavjud. Masalan, "Tahrim" surasining 1-oyatidan { تَتَّبِعِي مَرْضَاتِ أَرْوَاجِكَ } "...Sen xotinlaring rizoligini istab..." so'zi qo'lyozma nusxada tushib qolgan va yangi nashrga tayyorlash davomida uni matnga qo'shib qo'yilgan[1:860].

Kitobni yaqin yillarda qayta nashr qilish jarayonida qo'lyozmadan ba'zi oyatlarning to'liq tarjimasini yoki ayrim jumalari tushib qolgani ham aniqlangan. Bunga misol tariqasida A'rof surasi 143-oyatida { فَلَمَّا تَجَلَّى رَبُّهُ لِلْجَبَلِ جَعَلَهُ دَكًّا وَخَرَّ مُوسَىٰ صَعِقًا } jumlasini tarjimasini tafsirda keltirilmaganini olish mumkin. Yangi tahrirda bu oyatning to'liq ma'nosi berilgan[1:273].

Tafsir hanafiy mazhabi va moturudiy aqidasi binoan yozilganligi bilan alohida e'tiborga loyiq. Mufasssir aqidaviy oyatlarni tarjima qilishda ehtiyotkorlik bilan yondashgan. Masalan, "Fath" surasi 10-oyatidagi { يَدِ اللَّهِ } kalimasini boshqacha ta'vil qilib, jumlaning "Alloh taoloning yordami ularning qo'llari ustidir"[1:83], – deb beradi.

Matn ichida Qur'on ilmlari va fiqhga doir ma'lumotlar ham bor. Ba'zi mansux oyatlarning qaysi oyat va qaysi hukm asosida mansux bo'lganligi bayon qilingan. Jumladan, Ziyor, xul'u va qasos kabi shar'iy istilohlarning fiqhiy javoblari ayrim o'rinlarda boshqa mazhablarning qarashlari ham bayon qilingan.

Olim asarda fiqhga doir so'zlarga Imom Abu Hanifa mazhabi asosida istiloh keltirgan. Ularni quyidagi oyatlar misolida ko'rish mumkin:

Baqara surasi 225-oyatida "Alloh taolo qasamlaringizda lag'v bo'lsa, gunohkor qilmaydi" jumlasidagi "lag'v" so'ziga "Imom A'zam qavllarida, lag'v deb, shunday qasamni aytadiki, bir odam bir xabarni ro'st deb gumon qilib qasamyod qiladi, biroq tekshirganda, bu so'zning xilofi (teskarisi) zohir bo'ladi" va 228-oyatdagi "Taloq qilingan xotinlar jimo' qilingan bo'lsalar va homilador bo'lmasalar, o'z nafslarini idda uchun saqlab turadilar" jumlasida "idda" so'ziga "Imom A'zam mazhablarida, (idda) muddati uch xayz o'tgunchadir", – deb izoh bergan.

Fiqhiy oyatlarni tafsir qilishdagi yana bir o'ziga xoslik shundaki, ba'zi o'rinlarda hanafiy mazhabidagi hukmning o'zi bilan chegaralanib qolmay, boshqa mazhablar bilan ham qiyoslaydi [1:69].

Hoshiyalarda oyatlarga tegishli bo'lgan vaqf (to'xtash), vasl (o'tish) va boshqa tajvid qoidalari

ham uchrab turadi. Asar "Nas" surasidan keyin:

والله اعلم بالصواب واليه المرجع والمآب [1:820]

jumlasini hamda quyidagi arabcha duo bilan xotima topadi:

اللهم ارحمني بالقرآن واجعله لي اماما ونورا وهدى ورحمة، اللهم ذكرني منه ما نسيت وعلمي منه ما جهلت وارزقني تلاوته آناء الليل وأطراف النهار واجعله لي حجة يارب العالمين [1:821]

Qo'lyozmada o'nga yaqin suralar boshida sababi nuzul, makkiy yoki madaniy ekanligi, necha oyatdan iboratligi aytib ketilgan. Qolgan qismida umuman suralar haqida izoh ham berilmagan. Asarning mustaqillikdan so'ng qayta nashr qilingan yangi tahririda o'zbekcha tafsir va tarjimalar hamda Ahmad Ismoil Sabbog'[4]ning arabiy, Husayn Voiz Koshifiy[5]ning forsiy va Hasan Tahsin[6]ning turkiy tafsirlaridan foydalanib, barcha suralar boshida qisqacha ma'lumot berilgan.

"Bayonul Furqon fi tarjimatil Qur'on" asarining o'zbek tilidagi boshqa tafsirlardan yana bir farqli jihati shundaki, ko'p hollarda oyatlar alohida emas, balki bir nechta yaxlit tarzda tarjima qilingan. Jumladan, asl-qo'lyozmada "Toriq" surasining 11-17-oyatlari yaxlit tarjima qilingan. Uni yangi nashrda kitobxonga oson va qulay bo'lishi maqsadida 3 qismga bo'lib tarjimasini berilgan[1:926].

Asarda mutarjim payg'ambarlar qissasi, jumladan "Horut va Morut" kabi qissalarni naql qilgan. Ammo, ularni qaysi manbadan olganini alohida qayd qilmagan.

Qur'on oyatlari ma'nolarining tarjimasini bilan izohlar ajratilmagan, ular aralash holda keladi. Olim ba'zi oyatlar oxirida oyat mazmuniga doir o'z fikrlarini ilova qilgan. Ilovalarning ba'zilari oyatdan yaqqol ajralib turadi, ayrimlari esa uning davomidek tuyuladi. Masalan, Baqara surasining 15-oyatini shunday tarjima qilgan:

"Lekin Alloh taolo ularning tamasxuri (masxarasi)ga Qiyomatda jazo beradi. *Bu dunyoda esa, to ajallari yetguncha muhlat berib qo'yadi.* Toki iymondan sarkashlik qilgan holda hayron va mag'rur bo'lib, umrlarini oxir qiladilar"[1:32].

Qo'lyozmani tahrirlashda izohlar oyat ma'nolaridan ajralib turishi uchun qiya shaklda berilgan. Bu yerda "*Bu dunyoda esa, to ajallari yetguncha muhlat berib qo'yadi*" jumlasini tarjimonning izohidir.

Qur'on ma'nolarini tarjima qilishda arab va forsi tilidagi so'zlardan ko'p foydalanilgan. O'zbekzabon musulmonlarga tushunarli bo'lish maqsadida nashrga tayyorlovchilar ularning o'zbek tilidagi ma'nosini qavs ichida berib ketganlar. Masalan, yuqorida kelgan oyatda qo'llanilgan "tamasxuri" so'zini masxara deb izohlaganlar.

Muallif oyatlar ma'nosi tarjimasini so'zmaso'z emas, balki erkin tarjima-tafsir qilgan. Natijada tarjima va tafsir uslubini o'zida birlashtirgan o'zbekcha tarjima matn vujudga kelgan. Shu bois oyatlar ma'nosi tarjimasi bilan mutarjim izohini ajratish mushkul. Ayrim oyatlar ma'nosi kengroq, ba'zilar muktasar tarjima-tafsir etilgan. Oyat tarkibida kelmagan, ammo tafsirlarda qayd qilingan atoqli otlar va shahar nomlarini, shuningdek, ba'zi o'rinlarda arabcha olmoshlar ifodalagan ma'nolarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima matnda kelgan. Masalan, A'rof surasi 141-oyatida { وَوَعَدْنَا مُوسَىٰ تَلْثِينَ لَيْلَةً } jumlasini quyidagicha tarjima qilingan:

“Biz Muso (alayhissalom)ga o'ttiz kundan keyin Tavrot kitobini berishga va'da qildik”[1:273].

Oyat tarkibida nimani va'da qilingani bayon qilinmagan. Lekin mutarjim tafsirlarda aytib o'tilgan murodni oyat ma'nosi tarjimasida bevosita keltirib o'tgan.

Mutarjim Baqara surasi 249-oyatida { فَلَمَّا فَصَلَ طَالُوتُ بِالْجُنُودِ } jumlasini “Vaqtiki Tolut Shumuil (Ishmuil alayhissalom)ning farmonlari bilan lashkarini olib, Baytul Maqdisdan chiqdi” deb tarjima qilgan. Ammo oyatda Ishmuil (alayhissalom), farmon, Baytul Maqdis ma'nosini anglatuvchi so'zlar kelmagan.

Tarjima matnida ba'zan bir xil shakldagi oyatlar turlicha tarjima qilingan. Masalan, “Shuaro” surasidagi takrorlanib keluvchi:

{ فَاتَّقُوا اللَّهَ وَاطِيعُونَ } oyati

“Bas, Xudodan qo'rqinglar, Menga itoat qilinglar”, “bas, Xudodan qo'rqib, Mening hukmimga itoat qilinglar”, “bas, Allohdan qo'rqinglar. Mening nasihatimni eshitib, farmonimga itoat qilinglar” kabi ko'rinishlarda tarjima qilingan[2:7].

Lekin bu kabi farqli tarjimalar yangi tahrirda ko'zga tashlanmaydi.

Yangi nashrda tarjima an'anasiga muvofiq mazkur oyatlar ma'nosini bir xil shaklda berilgan.

Qo'lyozmada suralar boshidagi “basmala”ni (“bismillahir rohmanir rohiym”ning qisqartirilgan shakli) “Alloh taolo nomi bilan boshlayman. U Zot dunyo va oxiratda bandalarga mehribondir”, shuningdek, “Naml” surasi, 30-oyatida kelgan “basmala”ni “Kechiruvchi va mehribon Parvardigorning nomi bilan”, – deb tarjima qilingan. So'nggi nashrda esa, Qur'onda kelgan barcha basmalalarga “Mehribon va rahimli Alloh nomi bilan”, – deb berilgan [1:29].

Suralar boshidagi muqattaot harflarga ham turlicha izohlar berilgan. Masalan, “Baqara” surasidagi muqattaot harflarga “Bu huruflarni

ma'nosiga Alloh taoloni O'zi donodur”[2:212], “Oli Imron” surasidagi muqattaot harflarga “Bu huruflardan Parvardigorni murodi nima bo'lsa, O'zi biladur[2:561]”, – deyilgan.

Ba'zi suralardagi muqattaot harflarga esa izoh berilmagan. Bular ham qo'lyozmani tahrirlash davomida bir xil shaklga keltirilgan.

XULOSA

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, “Bayonul furqon fi tarjamatil Qur'on” asari o'ziga xos tafsir qilish uslubi bilan e'tiborli sanaladi. Chunki kitobda tafsir qilish shartlariga alohida e'tibor berish bilan bir qatorda o'quvchilarga tushunarli bo'lishiga ham urg'u berilgan.

Muhammadjon domla uni avom xalq va talabalar uchun ekanini ta'kidlagan bo'lsa-da, tafsirda keltirib o'tilgan fiqhiy va aqidaviy masalalar, Qur'on ilmlariga doir istilohlar, islom tarixiga oid ma'lumotlar olimlar uchun ham birdek foydali ekanini isbotlaydi.

Mazkur asar o'zidan oldin yozilgan asarlardan avvalo, ixcham va xalqchilligi, jumalarning soddada shaklda tuzilganligi, oyatlarni sharhlashda yangicha yondashuv va tafsirning naqliy dalillarga zid bo'lmay, ilmiy asoslanganligi bilan ajralib turadi.

Ushbu izohli tarjima-tafsir Qur'oni karim ma'nolari mohiyatini ochib berishda o'zbek tafsirshunosligida amalga oshirilgan muhim bir ish sanaladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shayx Muhammadjon mullo Rustam o'g'li. Qur'oni karim oyatlari ma'nolarining izohli tarjimasi. – Toshkent: Movarounnahr, 2006. – 979 b.
2. Shayx Muhammadjon mullo Rustam o'g'li. Qur'oni karim oyatlari ma'nolarining izohli tarjimasi. – Toshkent: Munir nashriyoti, 2022. – 832 b.
3. Mirzo Kenjabek. Qissai Mavlaviy – Hindistoniy. – Toshkent: Sharq, 2018. – 64 b.
4. Ahmad Ismoil Sabbog'. Al-Muxtor min tafosiril Qur'onil karim va asbobin nuzul. – Damashq, 1984. – 192 b.
5. Husayn Voiz Koshifiy. Tafsiri Husayniy. – Bombay, h. 1312. – 341 b.
6. Hasan Tahsin. Fayzul Furqon. – Istanbul, 2005. – 688 b.
7. Islom. Ensiklopediya. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – 320 b.
8. www.kh-davron.uz
9. www.kukaldosh.uz
10. www.ziyouz.com